

***O'ZBEK MILLIY CHOLG'U AN'ANALARIDA TURG'UN ALIMATOV.*****Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti****Madaniyatshunoslik bo'limi katta ilmiy xodimi****Tojiboev Sardor O'ktam o'g'li.**

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbek milliy cholg'u an'analari tarixida alohida o'rin tutgan atoqli san'atkor Turg'un Alimatovning hayoti, ijodi va milliy musiqa rivojiga qo'shgan ulkan hissasi tahlil qilinadi. Turg'un Alimatov XX asrda o'zbek musiqa madaniyatining eng yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning dutor, tanbur, sato kabi milliy cholg'ularni ijro etishdagi noyob uslubi, maqom san'atini ommalashtirish borasidagi xizmatlari, yosh avlodga o'rnak bo'la olgan mahorati maqola markazida yoritiladi. Shuningdek, uning ijodiy faoliyati orqali O'zbekistonda milliy cholg'u san'atining davrlar osha qanday rivojlangani, an'analari va zamonaviylik uyg'unligining qanday mujassam topgani tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Turg'un Alimatov, milliy cholg'u an'analari, maqom san'ati, dutor, tanbur, sato, o'zbek musiqa madaniyati, ijro mahorati, an'anaviy musiqa, cholg'u merosi.

Аннотация. В данной статье рассматривается жизнь и творческий путь выдающегося узбекского музыканта Тургун Алиматова, сыгравшего важную роль в развитии традиционной инструментальной музыки Узбекистана. Тургун Алиматов был одним из крупнейших представителей музыкальной культуры XX века. Его уникальный стиль исполнения на таких национальных инструментах, как дутор, танбур и тор, вклад в популяризацию макомного искусства, а также педагогическая деятельность освещаются в контексте сохранения и развития узбекского музыкального наследия. Также в статье анализируется, как его творчество отразило эволюцию национальной инструментальной музыки сквозь эпохи и гармонию между традициями и современностью.

Ключевые слова: Тургун Алиматов, национальная инструментальная традиция, искусство макама, дутор, танбур, тор, музыкальная культура Узбекистана, исполнительское мастерство, традиционная музыка, музыкальное наследие.

Annotation. This article explores the life and creative legacy of Turgun Alimatov, a prominent figure in Uzbek traditional instrumental music. As one of the most influential representatives of 20th-century Uzbek musical culture, Alimatov's unique style of performing on national instruments such as the dutar, tanbur, and tor, as well as his contribution to the promotion of maqom art and his role as a mentor, are thoroughly examined. The article also analyzes how his artistry contributed to the preservation and evolution of Uzbek instrumental music through generations, highlighting the harmony between tradition and modernity.

Keywords: Turgun Alimatov, national instrumental traditions, maqom art, dutar, tanbur, tor, Uzbek musical culture, performance mastery, traditional music, musical heritage.

Ma'lumki, milliy musiqa san'atimiz uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tabiiyki, bu uzoq davr ko'plab ijodkorliklarni, ijrochilarni ko'rgan. Borbad, Noqissa, Sarkashlar kabi o'z davrining mashhur sozanda, xonanda, bastakorlari milliy musiqa san'atining rivojida katta




ahamiyat kasb etgan. Bastakor iborasini qo'llashimizning sababi shuki, o'rta asrlarda har bir cholg'uchi xonandalikni ham bilgan, bastakorlikdan ham xabari bo'lgan va shoirlikni ham uddalagan. Ya'ni, ijodkor bo'lgan. O'zi yozgan she'rga o'zi kuy yozib, bastalab o'zi ijro etgan. Bularning hammasi o'zga musiqachi ijodkorlar bilan bo'lgan sog'lom raqobat natijasi bo'lgan desak mubolag'a bo'lmas. Xalq orasidan yetishib chiqqan mohir bastakorlar tomonidan maqom durdonalarimiz yozilgan, ular saroylarda ijro qilingan. Tarixdagi musiqachilar uchun eng oliy va yuqori martaba saroy cholg'uchisi, xonandasi bo'lish yoki saroy cholg'uchi-xonandalarining boshlig'i bo'lish bo'lgandur, bu maqsad yo'lida o'zaro turli baxslar ham bo'lgan. Bu haqda tarixiy manbaalardan Firdavsiyning Shohnomasida Borbad hamda amaldagi Saroy musiqachilari rahbari bilan musiqiy baxs bo'lganligi haqida hikoyalar keladi. Keyinchalik Forobiydan so'ng Darvish Ali Changiygacha juda ko'plab mashhur, yetuk musiqachilar yetishib chiqqan. Aynan shu davrlarda Duovdahmaqomning shakllanishi, gulab yashnashini kuzatishimiz mumkin. "XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib Buxoroda Shashmaqom turkumi uzil-kesil shakllandi" [6,148]. Bu va bundan keyingi davrlarda ham juda ko'plab mashhur maqom cholg'uchilari ijrochilar saroyda ijod qilishgan. Hoji Abdulaziz Rasulov, Ota G'iyos Abdug'ani, Ota Jalol Nosirov shular jumlasidandir. XX asrga kelib SSSR tashkil topganidan so'ng, saroy hokimiyati tugatiladi va u yerdagi musiqachilarga ham ish qolmaydi, buni yaxshi bilasiz. Bularni yaxshi anglagan Abdurauf Fitrat 1921-yil Buxoroda tashkil qilgan "*Sharq musiqa*" maktabiga Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'anilarni ishga taklif etadi. Hamda keyinchalik yetuk sozandalar, xonandalar, bastakorlar saroyda emas, balki o'quv jarayonida ham yetishib chiqishni boshlaydi.



An'anaviy ijrochi ijodkorlarning asosiy maqsadi milliy musiqamiz durdonalarini targ'ib qilishdir, aslida. Bu targ'ibot turli yo'llar bilan bo'lishi mumkin. Tarixan eng keng tarqalgani bu ustoz-shogird an'anasi asosida yotadi. XX asrga kelib esa bunga yana turli zamonaviyliklar ham qo'shildi. Milliy musiqa na'munalarimiz ijrosini yozib olish boshlandi. Keyinchalik esa, Radio qo'mitasi tashkil topgandan so'ng, yanada sifatli tarzda gramplastinkalarga yozib olinib, radio efirlarga uzatila boshlandi.

XX asr ham bizga ko'plab mashhur sozanda, xonanda, bastakorlarni tuxfa etdi. **Yunus Rajabiy, Turg'un Alimatov, Fahriddin Sodiqov Rajabiy, Orif, Alimahsumov, Mahmudjon Muhamedov, To'ychi Inog'amov** va yana juda ko'plab musiqachilar. Yunus Rajabiyning eng suyukli shogirdi Turg'un Alimatov o'z hayotini ayni milliy musiqa sohasiga baxshida etgan zotdir.



Rizqi

Dutor, tanbur, sato cholg'ularining mohir ijrochisi, bastakor sifatida yuksak darajada ardoqlarga loyiq inson. Shogirdlarining hurmatli ustози, ijrochilik sir-asrorlarini ko'plab shogirdlariga o'rgatgan.



“...Turg'un Alimatov 1922 yil 20 yanvar kuni Toshkentdagi Chuvalachi mahallasida tug'ilgan. **Dutor**¹ chalishni otasidan o'rgangan. Otasi Alimuhammad choyxonachi bo'lib, musiqa, san'at shaydosi bo'lgan. Dutorni yaxshi chertar, musiqa shina vandallari choyxonaga yig'ilgan paytlarda qo'liga soz olib, o'zi yaxshi ko'rgan kuylardan ijro qilib berardi. Aynan shuning uchun ham choyxona doim gavjum bo'lgan”[5.250]. Shu muhitda bolaligi o'tgan Turg'un Alimatov besh-olti yoshidan dutor chalishni mashq qila boshlagan. Alimuhammad boboning bir nechta choyxonasi bo'lib, biri shaharda, yana biri shahar tashqarisida ekan. Otasi boshqa choyxonada bo'lganida Turg'un Alimatov xo'randalarga o'zi dutor chalib berar ekan. Biroq bu kunlar uzoq cho'zilmaydi.

Ustoz Turg'un Alimatov 13 yoshga to'lganda otasidan ayrilib qoladi. Onasi va singillarini tog'asi o'z qaramog'iga oladi. Turg'un Alimatov o'zi o'qiyotgan maktabda yotib, o'qib yuradi. O'qishdan bo'sh vaqtida bozorda suv sotib, tirikchilik qiladi. Yettinchi sinfni tugatgandan so'ng Eski shahardagi “Педабфак” texnikumida o'qishni davom ettiradi. Bu erda musiqa to'garagi bo'lgani uchun o'zining sevimli cholg'usi – dutorni yanada chuqurroq o'rgana boshlaydi.



Keyinchalik Turg'un Alimatov otasining choyxonasi haqida gap ketganda o'sha davrlarda choyxonaga ko'plab shina vandallar qatorida mashhur yozuvchi Abdulla Qodiriy ham tashrif buyurgani haqida eslar edi. ***“Otamiz Alimuhammadning dutordagi kuylariga u kishi ham muxlis bo'lib, choyxonamizda deyarli har kuni ijro etiladigan “Dutor navosi” kuyidan juda ta'sirlangan***

¹Dutor – Torli chertma milliy musiqa cholg'usi. O'zbek, tojik, uyg'ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. O'zbek dutori muloyim, nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. U asosan, tut, o'rik yog'ochlaridan yasaladi.



ekanlar. Abdulla Qodiriy mana shu manzara va holatni o'ta mohirlik bilan mashhur "O'tgan kunlar" asariga kiritgan", - deb eslar edilar.

Turg'un Alimatov ko'p kitob o'qir, ayniqsa, "O'tgan kunlar"ni qayta-qayta mutolaa qilar, talaba do'stlariga o'qib berar, **"Dutor navosi"** degan joyida dutorni olib chalib berar ekan.

Uning sozandalik mahorati tez orada atrofdagilarning nazariga tushadi. Bir kuni shunday o'tirishlarda Turg'un Alimatovning nigohi mehmonlar orasida o'tirgan rus millatiga mansub kishiga tushadi. U Moskvadan kelgan kompozitor va musiqashunos bo'lib, o'sha vaqtda o'zbek kuy-qo'shiqlarini notaga solish bilan shug'ullanib yurgan ekan. Dutor ovozi uni qiziqtirib qo'yanligini aytadi. Bobomdan



ana

milliy

ijro

qilgan kuylarini notaga yozib olish maqsadida qayta chalib berishini iltimos qiladi. Kuy tugagach, bobomga minnatdorlik bildirib, musiqa bilan shug'ullanishni, o'qishi lozimligini aytib, o'zini Viktor Uspenskiy, deb tanishtiradi.

Texnikumni bitirgach, Turg'un Alimatov yozuvchi bo'lish orzusida Toshkentdagi Pedagogika institutga o'qishga kiradi. Shu bilan birga, Eski Jo'vadagi Yosh tomoshabinlar teatriga sozanda bo'lib ishga kiradi. O'qishga, ishga joylashib, kelajak orzulari ishtiyoqida yonib yurgan bir vaqtda Ikkinchi jahon urushi boshlanib, frontga ketadi. Muhtabar aya Turg'un qizi hikoyasidan:

– **Hovlimiz Toshkentning eng so'lim, fayzli joylaridan biri Xadra maydonida edi,** – deb eslaydi Muxtabar ayam.



– Otamni yo‘qlab keluvchi mehmonlar, yoru-do‘st, muxlislari ko‘p edi. Har kun onam bilan mehmonlarga dasturxon tuzash, taomlar tayyorlash bilan band bo‘lardik. Tongga qadar she‘r, kuy, g‘azalxonlik bo‘lardi. Ana shu davralarda mashhur “Turg‘un tanovari” tug‘ildi. Bunday bazmlarda “Tanovar” necha marotaba ijro qilinganini hisobi yo‘q. Otam bir tanburni, bir dutorni qo‘lga olib zavq bilan chalar, shinavandalar hayrat bilan tinglashar edi. Ularning bu holatlarini so‘z bilan tasvirlab bo‘lmaydi. Parda ortidan men ham tinglab turar ekanman, kuy go‘yo otamning hayot yo‘lini so‘zlayotganday bo‘lardi. Keyinchalik bu kuylarni dutor va tanburda ijro etib yozdirdi. Ular “Turg‘un tanovari” deya atala boshladi. Lekin men bu kuylarni o‘zgacha holatlarda tinglaganim uchun, ko‘zo‘ngimda yaralgani bois, qachon tinglasam, o‘sha damlarni eslayman va beixtiyor ko‘zimga yosh quyulib kelaveradi.

Taqdir uni yana musiqa olamiga olib kiradi. 1943-1946 yillarda Muqimiy nomidagi



musiqali
drama
teatrda,
1947 yilda
Yunus

Rajabiyning taklifi bilan O‘zbekiston teleradiosi qoshida tuzilgan ansamblga **tanbur**²chi bo‘lib ishga kiradi. 1957 yildan mazkur ansambl Yunus Rajabiy rahbarligidagi maqomchilar ansambli deb yuritila boshlaydi. Ansambl “Shashmaqom”, Toshkent-Farg‘ona maqom yo‘llari katta hajmdagi turkum asarlarni plastinkaga yozib olish ishlarini boshlaydi. Maqomchilar ansamblidagi muhit, u yerdagi zabardast hofiz, sozandalar va ijodiy jarayonlar

²Tanbur – qadimgi torli musiqa cholg‘u asbobi. Forobiyning musiqa risolasida Xuroson Tanburining parda tuzilishi keltirilgan. O‘zbek, tojik, uyg‘ur va boshqa xalqlarda professional soz sifatida keng tarqalgan.



san'atkor ijodida muhim rol o'ynadi. U eng mashhur va noyob ijrolarini ayni o'sha pallada tasmlarga yozdiradi. Uning dutor, tanbur, sato cholg'ularidagi betakror ijro uslubi keng targ'ib etiladi. Turg'un Alimatovdagi bunday qobiliyatni e'tiborga olib, Yunus Rajabiy unga sato cholg'usi haqida so'z ochadi. Ilgarilari mashhur tanburchilar kezi kelganda, tanburni kamon bilan chalishgan. Uni **sato**³ deyishgan. Shundan so'ng Turg'un Alimatov usta Usmonning uyiga borib, undan 1936-yillarda yasalgan ikkita satoni olib ketadi. Turg'un Alimatov bir yil mobaynida cholg'ularni qayta jonlantirish ustida ishlaydi. Yangicha cholg'uda yangicha ijro yo'lini yaratish o'ta murakkab ish. Buning uchun sabr, matonat, uzoq mehnat talab qilinadi. U goh simlarni almashtirar, goh pardalarini o'zgartirar edi. Satoda o'ziga ma'qul bo'lgan tovushni topgach, xalq kuylaridan "Cho'li iroq" va "Navo"ni tayyorlab, radioga, ansambl a'zolariga havola etadi. Yunus Rajabiy bu asarlarni tezlikda studiyada yozdirib qo'yishni va satoni doimo chalib yurishini aytadi. Kundan-kun satoning shuhrati yoyilib, muxlislari soni ko'paya boshlaydi.

Keyinchalik orkestr ijrosida yozdiriladigan xalq kuylarida albatta sato jo'rligidagi qismni qo'llash odat tusiga kiradi. Zamona Zayli bilan bugungi milliy musiqamizda qo'llanib kelinayotgan "Sato" cholg'usini yaratish Yunus Rajabiy sababli Turg'un Alimatovga nasib etdi.

1990-yillarda Turg'un Alimatov qator chet mamlakatlarda yakkaxon kontsertlar beradi. AQSh, Fransiya, Germaniyada minglab muxlislarni o'zbek milliy musiqa san'atiga shaydo etib, ulkan e'tiroflarga sazovor bo'lib qaytdi. Turg'un Alimatovninig uzoq yillar qilgan mehnatlarini inobatga olib davlatimiz "**Buyuk xizmatlari uchun**" ordeni bilan taqdirladi.

³Sato (Setor so'zining buzilgan shakli) – tanburning kamon bilan chalinadigan turi. O'zbek, tojik, uyg'ur, eron, afg'on xalqlarida tarqalgan. Kosasi tanburga nisbatan kattaroq va yupqaroq, qopqog'i kengroq bo'ladi.



Turg'un Alimatov o'z uslubi va ijrochilikdagi noyob uslubi bilan keyingi avlod yoshlarini milliy musiqaga qiziqтира olgandi. Yosh san'atkorlar ichida ustozning ijro yo'liga qiziquvchilar, ergashuvchilar tobora ortib bordi. Shulardan kelib chiqib, ustozni O'zbekiston davlat konservatoriyasiga ishga taklif etishdi. Turg'un Alimatov umrining so'ngiga qadar talabalarga saboq berdi. Ustozlik yo'nalishidagi mehnatlari o'laroq faxriy professor lavozimi berildi.

Shunday qilib, Alimatovning musiqiy faoliyati 17 yoshidan umrining oxirigacha cho'zildi. Sozanda shoshmaqom turkumidagi kuylarni yuksak mahorat bilgan chalgan, o'ziga xos uslub va musiqiy bezaklar bilan boyitgan. Shuningdek, ushbu turkumdagi hamda Farg'ona-Toshkent yo'lidagi noyob maqom namunalarining milliy musiqa xazinasining oltin fondi uchun yozib olinishida muhim rol o'ynagan. Alimatov tomonidan yuksak mahorat bilan ijro etilgan.



“Dutor navosi”, “Tanovar”, “Chorgoh”, “Munojot”, “Navro‘zi ajam”, “Buzruk”, “Kuygay” kabi mumtoz musiqa namunalari katta shuhrat qozongan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Turg'un Alimatov 1947-yilda Yunus Rajabiyning taklifiga binoan Radiokomitet qoshidagi milliy chog'ular ansambliga taklif etiladi. U yerda 1952-yilgacha samarali faoliyat yuritadi. “Shu yil bu ansambl o'sha davr siyosati



munosabati bilan tarqatilib, milliy cholgʻu, kuy qoʻshiqlari efirdan ham uzib qoʻyiladi”[8.68].

1957-yilda Oʻzbekiston Radiokomiteti qoshida Yunus Rajabiy va Doni Zokirov rahbarligida oʻzbek xalq cholgʻu sozlari orkestri oʻz faoliyatini boshlaydi. Bu orkestrga koʻpchilik sanʼatkorlar qatorida Turgʻun Almatov ham taklif etiladi. Bir necha vaqt orkestrda ishlab, koʻp kuy-qoʻshiqlar yozdirishadi va sekin asta orkestr qoshida norasmiy maqom guruhi faoliyat olib bora boshlaydi.

Bu davr Turgʻun Alimatovning ijodiy kamolining yuksalish davri boʻlgan desa ham boʻladi. Hozirda oʻzining betakror ijrochilik talqiniga ega boʻlgan cholgʻuchilar unchagina koʻp emas, Doyrada Usta Olim Komilov, Gʻijjakda Abduhoshim Ismoilov, xonandalikda Yunus Rajabiy, Mulla Toʻychi Toshmuhammedov va boshqalar, changda Faxriddin Sodiqov, tanburda esa, Turgʻun Alimatov.

Bir cholgʻuchi qanchalar betakror ijrochilik qobiliyatiga ega boʻlmasin, uni xalq ardqolamasa iloji yoʻq. Yaʼni, betakror qobiliyatni talqinga aylanishida xalqning roli kata. Turgʻun Alimatov ham Radio orqali, toʻy-bazmlar orqali xalqqa mashhur boʻlgan. U ijro etgan “Choʻli Iroq”-u “Munojot”larni tinglasangiz vujudingizni oʻzgacha xissiyotlar egallaydi.

Ustozimiz Isroil Vahobov Turgʻun Alimatov bilan suhbatlari haqida gapirganlarida ***“Biz Turgʻun ustozdan oʻzingiz oʻta xushchaqchaqsiz bunday mungli nola-yu qochirimlarni qayerdan olasiz deb soʻraganimizda, men hayotda juda koʻp qiyinchiliklarni koʻrganman va ichimdagi bor dardlarni bormoqlarim orqali tanbur, sato, dutorlarga jo etganman degan edi”, - derdilar.***

Haqiqatdan ham turgʻun Alimatovning ijro qobiliyatlariga nafaqat oʻzbek shinavandalari, balki butun dunyodan ham odamlar tan berishar ekan.



Turg'un Alimatov haqida ustozlarimiz so'zlar ekan juda ma'suliyatli ekanligi haqida gapirishadi. Biror joyga chaqirilsa muddatdan yarim soat oldin yetib borishlar, har bir ishni o'z vaqtida bajarishlari va atrofida qilishlari ham shunga da'vat qilishlarini sog'inib eslashadi. Keksalik chog'larida ham konservatoriyada tanbur cholg'usidan dars berib kelgan.



Ovoz rejissyori Nabi Hasanov yordamida yakka sozlar (Dutor-tanbur-sato va b.)da o'ziga xos yakkanavoz "ansambl" tarzida ijro etgan cholg'u kuylari 10 dan ortiq gramplastinkalarda chiqarilgan.

"Badihago'ylik, soz pardalarini o'ta mungli va dardli yangratish, torlarni nozik nolalantirib chalish Turg'un Alimatov ijrochilik uslubiga xos"[7.324]. Turg'un Alimatovni tanbur va sato cholg'ularini avval ko'rilmagan uslubda qo'llashi va ijro etilishi ko'pchilik tomonidan yuksak baholangan. Lekin, bu san'atning haqiqiy qadrllovchisi Yunus Rajabiy bo'lgan. Turg'un Alimatov milliy musiqa an'analarini e'zozlagan holda, ijroda novator va modernistdir. Har sohada bo'lganidek, yangiliklarni hamma ham tez qabul qila olmagandek, sozandaning ijrosiga turli munosabatlar bo'lgan. Kelishmovchiliklar sababli sozanda bir necha bor ishdan ketadi va har safar Yunus Rajabiy qaytarib olib kelar edi. U kishi **"Agar siz hech kimga kerak bo'lmasangiz ham, menga keraksiz"** degan so'zlari ishga yana qaytishiga sabab bo'lar ekan. Lekin, aslida shu ziddiyatlar Turg'un Alimatovni o'z san'atiga ishonch va g'urur tuyg'usini yanada kuchaytirgan, san'atining rivojiga va uning shaxs bo'lib shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, nazarimizda.

Shuni e'tirof etish joizki, Turg'un Alimatov klassik kuylarni o'z uslubida ijro etish bilan birga bir qancha xalq(folklor) kuy-qo'shiqlarini qayta ishlab, klassik musiqa namunasiga aylantirgani rost. Tanburda xalq musiqa merosidan – **"Bilakuzuk", "Gulyoraxon", "Munojot I II III", "Fabrika"** asarlarini yuksak mahorat bilan ijro etdi.



Yana qo'shimchasiga davrda mashhur bo'lgan qo'shiqchilarning deyarli barchasi Turg'un Alimatov tanburi jo'rligida ijro etgan asarlari bilan repertuarini boyitdilar. Masalan: **Alijon Xasanov, Siroj Aminov, alimaxsumov, Is'hoq**



o'sha

Orif

Katayev, Eson Lutfullayev, Umar Otayev, Alijon Erkayev, Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Shahodat Rahimova, Mehri Abdullayeva, Berta Dovidova, Kommuna Ismoilova, Xolisxon Qodirova, Hadiya Yusupova va boshqalar.

Turg'un Alimatovni o'zining ijodiga mahsul bo'lgan asari ham yo'q emas. Bulardan eng mashhuri deya *"Tanbur nolasi"*ni olishimiz mumkin.

Ustoz Turg'un Alimatov dutor cholg'usida xalq musiqasidan o'rin olgan *"Tanovar"*ning turli yo'llarini, jmladan, *"Farg'ona tanovari"*, *"Qo'qon tanovari"*, *"Adolat tanovari"*, *"Jigar pora"*; *Farg'ona-Toshkent yo'llaridan "Navro'zi ajam"*, *"Girya 1,2"*, *"Eshvoy"*, *"Kurd"*, *"Chorgoh"*; *Shashmaqom cholg'u va ashula yo'llaridan "Navo"*, *"Saraxbori Buzruk"*, *"Iroq"* zamondosh bastakorlar ijodidan *"Guluzorim"*, *"Kuygay"* kabi asarlarni hamda o'zining ijod mahsuli bo'lmish *"Dutor navosi"*ni yuksa ijroviy talqin etdi. Beqiyos sozandaning barcha cholg'ulardagi ijro mahoratiga qaramay, nozik sadoli, yoqimli tembrga ega bo'lgan tanbur cholg'usi san'atkorga shuhrat keltirdi.

"Turg'un Alimatov tabiatan juda kam uchraydigan musiqiy iste'dodga ega bo'lgan ijodkordir. Atoqli sozanda tug'ma iste'dod sohibi bo'lishi bilan bir qatorda tinimsiz mehnati va kasbiy tajribasi orqali ijroviy yo'nalishda eng yuksak martabalarga mushtaraf bo'ldi"[10.132].

Atoqli sozanda sato cholg'usida xalq musiqa merosidan *"Surnay navosi"*, *"Alla"*; *"Farg'ona-Toshkent yo'llaridan "Toshkent Irog'i"*, *"Navro'zi ajam"*, *"Cho'li Iroq"*, *"Chorgoh"*; *Shashmaqom cholg'u va ashula yo'llaridam "Samarqand Ushshog'i"*, *"Saraxbori Buzruk"* hamda o'zining mualliflik cholg'u kuylaridan *"Sato nolasi"*ni maromiga yetkazib talqin etdi.



Turg'un Alimatov mumtoz kuylarni ijro etganda har gal turli nafislik bilan, turli sayqal bilan ijro etgan. Buning natijasida uning ijrolari tuslandi, turlandi va boyib bordi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek xalq va mumtoz musiqani targ'ib qilish jabhalarida atoqli sozandalarning o'rni beqiyosligini unutmasligimiz va inobatga olishimiz maqsadga muvofiqdir.

Shuning uchun ham ushbu davr o'zbek milliy musiqa san'atining rivojlanishini eng yuqori bosqichi Turg'un Alimatov talqin etgan bebaho musiqiy asarlar bilan belgilanadi.

Tarixan qisqa davr ichida Shashmaqom bilan bog'liq juda ko'plab yangiliklar amalga oshirildi. Shashmaqom notaga olinib, olti jildlik *“Shashmaqom”* to'plamlari tayyorlandi, to'liq yozuvga yozib olindi va 1973-Shashmaqom telefilmi suratga



[9]

audio
yilda

olindi. Turg'un Alimatov bu jarayonlarning barchasida faol qatnashgan. Bunda o'zining alohida o'rni bo'lganligini *“Shashmaqom”* filmida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Filmda satova tanburning yakkaxon ijrosidan o'rinli foydalanilgan va kuylarga qarab Turg'un Alimatov tanburning turli xillarini ishlatgan. Qolaversa, ma'lum kuylardan tashqari u kishiga xos bo'lgano'zining umumiy *“Nola”* nomi bilan ataluvchi improvizatsion asarlari ham filmda ishlatilgan.

“Turg'un Alimatov ijrochilik uslubining shakllanishida bir qator ustozlarning san'ati muhim omil bo'lgan desak o'rinli bo'ladi. Rizqi Rajabiy, Jo'rabek Saydaliyev, Qayum Shomurodov, Asadqori Lutfullayev, Orif Qosimov Mahmud Yunusov kabi ustoz sozandalar shularjumlasidandir”[4.18].

Turg'un Alimatovning ijodiy va ijroviy merosidan quyidagi bastakorona yo'nalishlari asosiy o'rin tutadi:

❖ ***Xalq orasida keng tanilgan muayyan kuy, qo'shiq yoki ashula yo'lining o'zgacha, shklan va mazmunan mustaqil ko'rinishdagi kuylarni qayta o'qib, mualliflashtirilgan namunasini yaratish. Misol uchun, “Fabrika”, “Bilakuzuk” “Jigar***



pora”, “Tanovar” ning turli yo‘llarini, jumladan, “Farg‘ona tanovari”, “Qo‘qon tanovari”, “Adolat tanovari” va boshqalar.

❖ *Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarini bastakorona qayta ishlash natijasida o‘ziga xos ijro talqinini yaratish. Bunga “Segoh”, “Navro‘zi ajam”, “Eshvoy”, “Kurd”, “Chorgoh”, “Toshkent Irog‘i”, “Cho‘li Iroq”, “Girya 1,2” misol bo‘lib xizmat qiladi.*

❖ *Shashmaqom cholg‘u va ashula yo‘llaridagi asarlarni ijro etish jarayonida noyob talqiniga erishish. Masalan, “Navo”, “Saraxbori Buzruk”, “Samoi Dugoh”, “Samarqand Ushshog‘i” va boshqalar.*

❖ *Zamondosh bastakorlarning asarlarini qayta idrok etish. Misol uchun, mashhur xalq ashulalaridan “Ey Sabo” Doni Zokirov musiqasi, “Guluzorim” Hoji Abdulaziz Rasulov musiqasi, “Kuygay” Yunus Rajabiy musiqasi, “Yolg‘iz” To‘xtasin Jalilov musiqasi kabi namunalar shular jumlasidandir.*

❖ *Noyob asarlar ijod etish. Masalan “Dutor navosi”, “Tanbur navosi”, “Sato nolasi”, “Improvizatsiya” va boshqalar.*

Yuqorida zikr etganimizdek Turg‘un Alimatov Toshkent davlat konservatoriyasida ham o‘z ish faoliyatini olib brogan, umrining oxirigacha talaba-shogirdlariga tanbur cholg‘usida ijro qilishning sir-asrorlarini o‘rgatib kelgan.

Shogirdlarining kamoli ustoz uchun baxtdir. Turg‘un Alimatovdan turli davrlarda saboq olgan va keyinchalik mashhur xonanda, sozanda va malakali o‘qituvchi bo‘lib yetishib chiqqan shogirdlarning soni ko‘pchilikni tashkil qiladi. Jumladan, *O‘zbekiston xalq xofizlari Hasan Rajabiy va Mahmudjon Tojiboyev, farzandlari Alisher Alimatov, Valisher va G‘anisher Alimatov, nabirasi Abror Zufarov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, sozanda Toir Qo‘ziyev* va boshqa san’atkorlar nomlarini sanab o‘tish lozim.



Hassos san'atkor ijro va ijod borasidagi mahorati, mumtoz musiqa san'atidagi ko'p yillik mehnati tufayli yangi-yangi kuy talqinlari, noyob chalish uslubi yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Ustoz sozanda asarlarini o'rganish va amaliy o'zlashtirishdan tortib to tinglovchilar hukmiga olib chiqqunga qadar murakkab va mashaqqatli, ayni paytda go'zal va lazzatli jarayonni boshdan kechirgan desak mubolag'a bo'lmas.

Shuning sababli ham Turg'un Alimatov san'ati tinglovchini o'ziga rom etadi va qalbiga rohat bxsh etadi.

Balki shu sababdan ham sozandalik san'atining cho'qqisiga ko'tarilgan Turg'un Alimatov mahorati bugun davrda ham O'z qadr-qimmatoni yo'qotmay, xalq mehridan joy olganligi bilan ajralib turadi. Zaro, xalq mehrini qozonish har qanday san'atkor uchun oliy baxtdir. Tabiiyki, bunday shaxs ijro etgan betakror navolar mumtoz musiqa olamida hamisha sevib tinglanadi, yosh avlod vakillari tomonidan e'zozlanib, kasbiy an'ana tamoyiliga aylanadi.

Bugungi kunda Alimatovni nafaqat uzoq ellarda ham bilishadi. Ayniqsa, musiqa an'alariga kelganligi alohida yo'q sozanda formatdagi yozuvlari tuyg'ularini dunyo xizmat qilib




afsonaviy sozanda Turg'un yurtimizda, mintaqamizda, balki milliy san'at darg'asi sifatida yaxshi Ustoz-sozandaning o'zbek mumtoz tayangan holda samarali ijod qilib e'tirof va e'tiborga loyiqdir. Takrori ijrosidagi asarlarning audio orqali hamon o'zbek xalqining dil xalqlari qalbiga tutashtirishga kelmoqda.

Yosh avlodni milliy-ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biri sifatida ularni har taraflama estetik badiiy did sohibi bo'lib yetishishida milliy musiqa merosining cholg'uchilik san'ati orqali tanishtirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Dutor nafaqat O'zbekistonda, O'rta Osiyo xalqlari, hususan tojik, uyg'ur, qoraqalpoq, turkman xalqlarida ham keng tarqalgan. Bu cholg'uda milliy kuylar bilan bir qatorda, barcha chet el



kompozitorlari tomonidan yozilgan har jihatdan murakkab asarlarni ham moxirona ijro etish mumkin.



O'zbekistonda taniqli sozandalardan **Orif Qosimov, Turg'un Alimatov, Abdusamad Ilyosov, G'ulom Qo'chqorov, Boqijon Rahimjonov, Abdurahim Hamidov, Ro'zibi Hojiyeva, Sulton Qosimov** singari mohir sozandalar dutorni xalqimiz ichida yanada sevimli va ommaviy bo'lishida katta hissa qo'shdilar. Dutorda asarlarni mustaqil o'rganish va ularni ongli ravishda o'zlashtirish, ijro etish sozanda uchun tanlagan kasbini sevishi, tinimsiz mehnat qilishi zarur bo'ladi.

Har bir insonda go'zallik tuyg'usini taraqqiy ettirmay turib, ma'naviy barkamol inson haqida gapirish noo'rindir. U tarixan shakllangan va muayyan davrda amalda bo'lgan badiiy ijod namunalarida mujassamlashgan go'zallikni hisqila olmas ekan, hech qachon "ma'naviy barkamol" inson darajasiga ko'tarila olmaydi. Musiqa insonni go'zallikga etaklovchi, badiiy estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega san'at turlaridan biridir. Uni hisqiladigan, tinglay oladigan va idrok eta oladigan shaxsni tarbiyalash va voyaga etkazish birdan-bir orzulardan bo'lib kelgan.

Farobiy "**Musiqa haqida katta kitob**" asarida musiqani uch qismga taqsimlagan:

- **Insonga huzur-halovat baxsh etuvchi;**
- **Ehtiroslarni qo'zg'ab jo'shqin qiluvchi;**
- **O'yga toldiruvchi, fikrlashga, tafakkur qilishga undovchi musiqa turlariga ajratadi.**

U musiqani rivojlanish bosqichlari, uni inson ruhiga ta'siri, ma'naviy ozuqa sifatida ezgu ishlarga ruhlantirishi, xursandchilik vaqayg'u kunlarda insonga hamdam bo'la olishi va nihoyat katta ishlarni amalga oshirish uchun kurashga chorlay olishini e'tirof etgan. Musiqa insonning mukammal bo'lmagan hulqini mukammallashtirishini, ya'ni muvozanatda saqlab tura olishini bu esa inson ruhiyatining salomatligini muhofaza qilishini, ruh salomat bo'lsa, tana bardam va muvozanatda turishi musiqa ham, ilm darajasida o'rganilishi foydali ekanligi haqida batafsil bayon etgan. Al-Forobiy musiqa insonning nozik sezgilari, tug'ma iste'dod va salohiyatlarning mevasi ekanligini ta'kidlash bilan birga



insonni ma'naviyati, ma'rifati, ongi va tushunchalarini to'ldiruvchi ruhiy ne'mat ekanligini ham uqtiradi.

Turgun Alimatov o'z yo'li, o'z uslubiga ega bo'lgan iste'dodli san'atkor edi. Hali hech kim bir kuyni dutor, tanbur va satoda Turg'un Alimatovchalik jo'shib mohirona ijro eta olgan emas. Shuning uchun ham uzoq yillardan beri tanbur, dutor taronalari Navoiyxonlik, klassik (mumtoz) taronalardan beriladigan konsertlar uning ishtirokisiz o'tmaydi.. El ardog'iga sazovor bo'lish haqiqiy san'atkor uchun eng katta baxt va oliy mukofotdir. Turg'un Alimatov bir necha o'n yillar davomida o'zining ijodiy faoliyatini ta'lim tarbiya ishlari bilan barobar olib bordi.



Turg'un Alimatovning ijodini o'rganish mobaynida ko'plab qiziqarli ma'lumotlarga duch keldik. Bunday buyuk ijrochilar bizga hali ko'p kerak. Maqom san'atiga, milliy musiqamizga davlat otmonidan qaratilayotgan e'tibor, yoshlar bilan olib borilayotgan siyosatlar. Bularning barchasi kelajak uchun poydevor vazifasini o'taydi. Milliy musiqiy merosimizni asrash, avaylash, kelgusi avlodga bekamiko'st yetkazish – bizning ustuvor maqsadlarimizdan bo'lishi kerak. Turg'un Alimatovday ustozlarimizning beqiyos ijrolarini o'rganib, amaliy o'zlashtirib, milliy musiqa targ'ibotiga, ta'limotiga joriy etishimiz darkor. Va bu choralar natijasida yana bir-nechta Turg'un Alimatovlar yetishib chiqsa, ajab emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. A.Jabborov, S.Begmatov, M.A'zamova. O'zbek musiqasi tarixi. "Fan va texnologiya" nashriyoti. Toshkent -2018.
2. S.Begmatov, M.Matyobubov. O'zbek an'anaviy cholg'ular. -"Yangi nashr", Toshkent-2008.
3. K.Olimboyeva, T.Yo'ldoshev, M.Axmedov, T.Mirzayev .O'zbekiston xalq sozandalari, 2 kitob. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent- 1974.
4. Rifatilla Qosimov. An'anaviy ijrochilik, "Fan" nashriyoti, - Toshkent, 2007-yil.
5. Feruza Yuldosheva. "Bugungi maqom cholg'u ijrochiligida, Turg'un Alimatov maktabining ahamiyati: Dutor misolida". Yilnoma. "Akademik Yunus Rajabiy merosi va zamonaviylik" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyahamda "O'zbekiston xalq hofizi



Mahmudjon Tojiboyev xotirasiga bag'ishlangan" xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami. "Bookmany Print" nashriyoti, - Toshkent. 2022-yil

6. Исҳоқ Ражабов. Мақомлар. Санъат нашриёти. – Т., 2006.

7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, А ҳарфи. Давлат илмий нашриёти, Тошкент-2014.

8. Алишер Алиматов. "Ўзбекистон халқ артисти Турғун Алиматов" // Юнус Ражабий номидаги мақом ансамблининг 60 йиллик ижодий ва амалий фаолиятига бағишланган конференция мақолалари тўплами. "Наврўз" нашриёти, - Тошкент, 2019-йил.

9. "Shashmaqom". I-VI. To'plovchi va notaga oluvchi Yunus Rajabiy. Fayzulla Karomatov tahriri ostida, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, - Toshkent, 1966-1975- yillar.

10. Nazokat Karimova. "Turg'un Alimatov – XX asr mumtoz musiqa ijodkori". Yilnoma. "Akademik Yunus Rajabiy merosi va zamonaviylik" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyahamda "O'zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Tojiboyev xotirasiga bag'ishlangan" xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami. "Bookmany Print" nashriyoti, - Toshkent. 2022-yil

